



**BUGUNGI KUN KITOBLARI: PDF FORMATIDAN ASL NUSHALARIGACHA -
O'QISH TAJRIBASINING TARAQQIYOTI**

Tursunaliyeva Baxtiniso Alisher qizi

O'zbekiston Davlat Jahon tillar universitetining tarjimonlik fakulteti

1-bosqich talabasi

Redmi.redmi12382@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda o'qish tajribasining qanday o'zgarishi va raqamli kitoblar (PDF) bilan an'anaviy nashrlar o'rtasidagi farqlar tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar rivojlanishi bilan kitoblar formati ham sezilarli darajada o'zgargan. Kitob o'qishning raqamli shakllari o'quvchilar uchun qulayliklar yaratgan bo'lsa-da, an'anaviy kitoblarning o'ziga xos ahamiyati muhim hisoblanadi. Maqolada, shu o'zgarishlarning o'quvchining tanloviga, o'qish jarayoniga va kitoblar bilan bog'liqligi qanday ta'sir ko'rsatishi muhokama qilinadi. An'anaviy va raqamli kitoblar o'rtasidagi farqlarni ko'rib chiqish, o'quvchilarning yangi texnologiyalar bilan o'qishning sifatiga bo'lgan munosabatlarini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Kalitso'zlar: PDF, raqamli kitoblar, portativlik, hissiy tajriba, interaktivlik, fizik shakli, o'qish konsentratsiyasi.

Kitob o'qish jarayoni so'nggi yillarda sezilarli o'zgarishlarga yuz tutdi. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi bilan birga, kitob formatlari ham yangi shakllarga kirib bordi. PDF formatidagi kitoblar o'qishning yangi imkoniyatlarini ochib bergan bo'lsa-da, an'anaviy bosma kitoblarning o'ziga xos ahamiyati ham saqlanib qolmoqda.

Hozirgi kunda kitob o'qish tajribasi raqamli texnologiyalarning rivojlanishi bilan sezilarli darajada o'zgargan. Raqamli kitoblar va an'anaviy bosma kitoblar, har ikkalasi o'zining o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lib, o'qish jarayoniga ta'sir qiladi. Har bir formatning o'ziga xos afzalliklari va kamchiliklari bor, ammo ularning o'qishdagi ta'siri qanday? Bu o'zgarishlarni to'liq anglash uchun, har ikki turdagi kitoblarning imkoniyatlari, qulayliklari va o'ziga xos jihatlarini batafsil o'rganish zarur.

Raqamli kitoblar:

- O'qishning qulayligi: Mobil qurilmalarda va kompyuterlarda o'qish imkoni,
- Istalgan joyda o'qib ketish imkoniyati,

An'anaviy kitoblar:

- Hissiy jihatlar: Kitobning fizik tuzilishi, qog'ozning hidini, varaqlash jarayonini o'qish tajribasi bilan bog'lash.
- O'qishning konsentratsiyasi: Ijtimoiy tarmoqlar chalg'itishlardan holi bo'lib, o'qishga to'liq sho'ng'ish.
- Qog'oz kitoblar batafsil o'qish va yodlash uchun foydalidir.



Raqamli kitoblar va an'anaviy bosma kitoblar o'rtasida bir nechta muhim farqlar mavjud. Ushbu farqlar nafaqat o'qish tajribasiga, balki o'quvchilarning tanloviga va ularning o'qish jarayoniga ta'sir qiladi.

O'qish qulayligi va portativlik: Raqamli kitoblarning asosiy afzalliklaridan biri shundaki, ular mobil qurilmalarda yoki kompyuterlarda saqlanib, istalgan joyda va vaqtda o'qilishi mumkin. Bu kitobni kutish joylarida, transportda yoki sayohat davomida o'qish imkonini beradi. An'anaviy kitoblar esa fizik shaklda bo'lgani uchun, ularni bir joydan boshqa joyga olib yurish nisbatan qiyinroq bo'lishi mumkin.

O'qish tajribasi va hissiyot: Bosma kitoblar o'qish tajribasini yaxshilaydi, chunki o'quvchi kitobning ichiga sho'ng'ib yana eslab qolish ehtimoli baland. Raqamli kitoblar esa texnologik qulayliklar bilan o'qishning interaktivligini ta'minlaydi, ammo hissiy tajriba va kitobning "hisini" beradi degan nuqta kamroq.

O'qish davomiyligi va diqqatni jamlash: An'anaviy kitoblar o'qishda diqqatni jamlashni osonlashtiradi, chunki ular raqamli qurilmalardagi xabarlar va ijtimoiy tarmoqlardan chalg'imasdan o'qish imkonini beradi. Raqamli kitoblar o'qish jarayonida esa, internetga ulanib turish va boshqa ilovalar bilan birga ishlash ehtimoli yuqori, bu esa kitobxonning fikrini jamlashi qiyinlashishiga sabab bo'ladi.

Kengaytirilgan imkoniyatlar: Raqamli kitoblar matnni kattalashtirish, qidirish, izohlash va boshqa kengaytirilgan funksiyalarni taqdim etadi. Bu, ayniqsa, o'quvchilarga ma'lumotlarni tezda topish va qayta o'rganishda yordam beradi. An'anaviy kitoblar bunday imkoniyatlarni taqdim eta olmaydi, ammo o'qish jarayonida yanada chuqurroq tahlil qilish va ma'lumotni xotirada saqlash imkonini beradi.

Sog'liq va ko'z salomatligi: Raqamli kitoblar ekranda o'qilishi sababli ko'zlar uchun qo'shimcha yuk bo'lishi mumkin, ayniqsa uzoq vaqt davomida o'qish inson salomatligiga ta'sir qilishi mumkin. An'anaviy kitoblar esa, tabiatda qog'oz orqali o'qish bo'lgani uchun ko'zlar uchun salbiy ta'sir ko'rsatmasligi mumkin.

Raqamli va an'anaviy kitoblar o'rtasidagi farqlar o'qish jarayonining turli tomonlarini shakllantiradi. Har ikki formatning o'ziga xos afzalliklari va kamchiliklari mavjud, va o'quvchilar har bir formatni o'z ehtiyojlariga qarab tanlashadi. Raqamli kitoblar o'qishning qulayligini ta'minlab ko'plab imkoniyatlarni taklif etsa, an'anaviy kitoblar o'qishning hissiy tajribasini va diqqatni jamlashni yaxshilaydi. O'quvchining tanlovi ko'proq uning o'qish maqsadlariga, o'qish muhiti va shaxsiy afzalliklariga bog'liq.

Kelajakda, raqamli va an'anaviy kitoblar o'rtasida biron bir formatning ustunligini aniqlash qiyin. Har ikkala formatning o'ziga xos xususiyatlari, o'qish madaniyati va texnologiyalar rivojlanishi bilan o'zgarib boradi. Shunday qilib, o'quvchilarga har ikki formatning imkoniyatlarini teng baholab, o'zlariga eng mos variantni tanlash tavsiya etiladi.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. N.N. Andreyeva . An'anaviy va elektron shakldagi kitoblar: ulaming zamonaviy madaniyatga ta'siri (ilmiy maqola).
2. Elvira Vaetova . An'anaviy va elektron kitoblar orasidagi afzallik va kamchiliklar
3. [https ://iharsw. login.by/blog/160825 01/](https://iharsw.login.by/blog/16082501/)

